



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Navbaxor Yunusova<sup>1</sup>

Zulfiya Pulatova<sup>2</sup>

O'g'iloy Bozorboyeva<sup>3</sup>

<sup>1,2</sup>Samarqand viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish  
hududiy markazi o'qituvchilarini

<sup>3</sup> Samarqand viloyati Jomboy tumani 26-umumi o'rta ta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi

## O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI ANIQLASHDA PEDAGOGIK KVALIMETRIYANING O'RNI VA AHAMIYATI

**Annotatsiya.** Pedagogik kvalimetriyaning ilmiy-tadqiqot metodlari jumlasiga taqqoslash, olingan natijalarini matematik statistik metod vositasida tahlil qilish va xulosa yasash, pedagogik kadrlarni suhbatdan o'tkazish, o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazish, ekspertizadan o'tkazish, ijtimoiy metodlarni kiritish mumkin.

**Kalit so'zlar:** ekspertiza, kvalimetriya, reyting, kompetensiya

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Davlat dasturlari, Prezident Farmoni va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlarida belgilangan vazifalarning bajarilishini nazorat qilish, oliy va umumta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish, akkreditatsiyalash jarayonining me'yoriy hujjatlari va reyting tizimini ishlab chiqish, tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining sifatini aniqlash, umumta'lim maktablarida fanlar bo'yicha talabalarning DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma, malakalarni o'zlashtirish, kompetensiyalarni tarkib topganlik darajasi va sifatini aniqlash maqsadidda pedagogik kvalimetriya fan sifatida ishlab chiqilgan.

Pedagogik kvalimetriyaning ilmiy-tadqiqot metodlari jumlasiga taqqoslash, olingan natijalarini matematik statistik metod vositasida tahlil qilish va xulosa yasash, pedagogik

kadrlarni suhbatdan o'tkazish, o'qituvchilarning fikr-mulohazalarini aniqlash maqsadida so'rovnama o'tkazish, ekspertizadan o'tkazish, ijtimoiy metodlarni kiritish mumkin.

Uzluksiz ta'lif tizimida tashkil etilayotgan ta'lif-tarbiya jarayonining sifatini nazorat qilish va baholashda tashxislash, ekspertiza, monitoring va pedagogik kvalimetriyadan foydalaniladi.

Pedagogik o'lchov nazariyasiga asoslangan kvalimetrik yo'nalish o'zining keng qamrovliligi, test jarayonining daxlsizligi, olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish, talabalarning rivojlanish darajasi va bilimlarni o'zlashtirish sifati haqida qat'iy aniq va ranjerli natijalarni olish imkonini beradi.

Ta'lif monitoringini ilmiy asoslangan va o'zaro uzviy bog'langan nazorat turlari va axborot texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lif-tarbiya jarayonidan ko'zlangan natijaga erishish va ta'lif sifatini aniqlash imkonini beradi.

Jahonning rivojlangan mamlakatlarning ta'lif monitoringida test topshiriqlaridan foydalaniladi va bu metod yordamida ko'p sondagi talabalarning qisqa muddatda o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari sifatini aniqlash, olingan natijalarga muvofiq talabalarga individual yondoshish, uzluksiz ta'lif tizimi turlaridagi ta'lif-tarbiya jarayonning sifatini aniqlash, ularning o'rtacha qiymatini aniqlash va baholash, olingan natijalarni qayd etish amalga oshiriladi.

Hozirgi paytda ta'lif muassasalarida test topshiriqlaridan samarali foydalanish yo'llari ishlab chiqilgan bo'lib, ta'lif makonida pedagogik muunosabatlarning yangi paradigmalari talaba-o'qituvchi, talaba-ota-onalar, o'qituvchi-rahbariyat, ta'lif muassasalari-ta'lifni boshqaruv organlari kabi nazorat-baholash tizimi amaliyatga joriy etilmoqda.

Test topshiriqlarining daxlsiz va mustaqil tashkil etilishi ta'lif-tarbiya jarayonining sifatini nazorat qilish va baholash tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi, shu bilan birgalikda tizim hosil qiluvchi va faol ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida maydonga chiqdi.

Respublikamizda joriy etilgan uzluksiz ta'lif tizimining barcha bo'g'inlarida ta'lif-tarbiya jarayonining samaradorligini nazorat qilish va baholash, mazkur tizimda pedagogik faoliyat yuritayotgan pedagoglarning kasbiy-pedagogik tayyorgarlik darajasini aniqlashda pedagogik kvalimetriya metodlari muhim o'rinn tutadi.

Shu nuqtai nazardan olib qaraganda uzluksiz ta'lif tizimining barcha bo'g'inlari shu jumladan, oliy ta'lif muassasasida pedagogik faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar pedagogik kvalimetriyani fan sifatida ob'ekti, predmeti, maqsadi, vazifalari, prinsiplari, kvalimetrik shkala, kvalimetrik jarayonning bosqichlari, pedagogik kvalimetriya metodlari vositasida ta'lif-tarbiya jarayonini tashxislash va baholash, olingan natijaga muvofiq umumiyl xulosalash, kasbiy-pedagogik faoliyatda kvalimetriya metodlarini qo'llashdagi yondoshuvlarning mazmun-mohiyatini anglashi lozim. Shu bilan bir qatorda professor-o'qituvchilar ta'lif-tarbiya jarayonida talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashda kvalimetriyaning asosiy metodlaridan biri, test topshiriqlaridan foydalanish, standart va nostandart test topshiriqlarini tuza olishi, test o'tkazish jarayonining metodikasi, olingan natijalarni ekspertizadan o'tkazish, yakuniy natijalarni umumlashtirish, pedagogning kasbiy-pedagogik modelini tuzish va modelning har bir tarkibiy qismining egallanganlik darajasini aniqlash, talabalarning umumiyl va kasbiy layoqatinini aniqlash metodikasi,

talabalar tomonidan bilimlarni egallaganlik va tarbiyalanganlik darajasini aniqlash va pedagogik xulosa yasash malakasini egallagan bo‘lishi zarur.

Pedagogik kvalimetriya professor-o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini aniqlashda ham o‘rin tutadi. Pedagog kadrlarning o‘z kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, kasbiy layoqatini baholash va o‘z-o‘zini baholash uchun pedagogik kvalimetriyaning quyidagi metodlaridan foydalaniladi:

1. Ekspertiza metodi
2. Tahlil metodi.
3. Pedagogik jarayonni kuzatish va tahlil qilish.
4. So‘rovnama o‘tkazish
5. Test topshiriqlari.
6. Suhbat metodi.
7. Matematik-statistik tahlil qilish.
8. Umumlashtirish.

Test topshiriqlarining qiyinlik darjasini mezoni o‘rganilayotgan ob’ektning xususiyatlarini o‘zida to‘liq aks ettirib, u talabalar tomonidan mazkur xususiyatlarni aniqlash uchun bajaradigan aqliy operatsiyalariga ko‘ra:

- Reproduktiv daraja;
- Produktiv daraja;
- Qisman-izlanishli daraja;
- Ijodiy (kreativ) darajada bo‘lishi mumkin.

Dastlabki reproduktiv va produktiv darajadagi test topshiriqlari o‘quv fan bo‘yicha tasdiqlangan DTS ining minimal darajasiga, qisman-izlanishli va ijodiy (kreativ) darajadagi test topshiriqlari DTSining maksimal darajasiga mos tuzilishi zarur.

Standart testlar mazmuni bo‘yicha reproduktiv va produktiv darajada, tarkibi jihatidan test topshirig‘i savoli va to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblardan iborat bo‘lsa, nostandart testlar o‘zining mazmuni, tuzilishi va qo‘llanish maqsadiga ko‘ra muayyan darajada farq qiladi.

Nostandart testlar mazmuni va mohiyatiga ko‘ra quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Integrativ testlar;
2. Adaptiv testlar;
3. Mezonli-mo‘ljal olish testlari.

Integrativ testlar integral mazmun, shakl, qiyinchilik darjasini bo‘yicha o‘sib boruvchi, ta’lim muassasasining bitiruvchisining tayyorgarlik darjasini haqida umumlashgan yakuniy xulosa chiqarishga imkon beradigan test topshiriqlari sanaladi.

Adaptiv testlar avtomatlashtirilgan, talabalarga nisbatan individual yondoshish imkonini beradigan, topshiriq mazmuni, bajarish tartibi, qoidasi, shu topshiriqni bajarish natijasida talabaning egallashi mumkin bo‘lgan bali va test natijalarini umumlashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalardan iborat bo‘ladi.


Mezonli-mo‘ljal olish testlari talabalarning umumiyligi tayyorgarlik darjasini, mazkur kursning o‘qitilish sifati, pedagogining pedagogik mahorati, ta’lim-tarbiya jarayoni samaradorligini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Mazkur test topshiriqlarini tuzish uchun avvalo o'quv kursi mazmuni DTS asosida tahlil etiladi, bilim, ko'nikma va malakalar aniqlanadi, ularni aniqlash uchun topshiriqlar majmuasi tuziladi, mazkur topshiriqlar test topshiriqlariga aylantiriladi va sinov o'tkaziladi, pirovar natijada talabalarning shu kursni o'zlashtirish darajasi yuzasidan xulosa tayyorlanadi. Nostandard test topshiriqlarini tayyorlashda mazmun va shakl asosiy o'rinni egallaydi. Quyida biologiya fanidan tuzilgan nostandard test topshiriqlari bilan tanishib chiqamiz:

### **1-nostandard test topshirig'i: *To'qimalar xillarini aniqlang.***

Jadvaldagи har bir rasm tagidagi qatorga ularga mos keladigan raqamlarni tanlang, to'qimalarning joylashishi va funksiyalarini yozing.


- 1) silliq tolali muskul;
- 2) ko'ndalang targ'il muskul;
- 3) yasssi epiteliy
- 4) silindrsimon epiteliy;
- 5) neyron;
- 6) yurak muskuli;
- 7) suyak;



Rasmli va ko`p javobli testlarning javobi quyidagi jadvalga yoziladi

2	3	6	1	7	5	4
---	---	---	---	---	---	---

### **2-nostandard test topshirig'i: *Rasmda tasvirlangan yurak qismlari va ularga mos keladigan raqamlarni yozing***



### **2-nostandard test topshirig'i: *Oilalarga tegishli belgilarni ajrataing va raqamlarni harflar bilan juftlang.***

№	Oilalar nomi	№	Oilalarga xos xususiyatlar
1	Ra'noguldoshlar oilasi	A	Bu oilada deyarli hamma qit'alarning sahro va cho'llarida, qumlarda va sho'rtob yerlarda o'sadigan o'simliklar kiradi.
2	Karamdoshlar oilasi	B	Respublikamizda ekiladigan g'o'za bu oilaga mansub o'simliklar orasida asosiy o'rinni egallaydi

3	<b>Sho'radoshlar oilasi</b>	C	Gullari qiyshiq, ikki jinsli, shingil, kallakcha xilidagi to'pgulga joylashgan
4	<b>Gulxayridoshlar oilasi</b>	D	Meva-qo'zoq yoki qo'zoqcha
5	<b>Burchoqdoshlar oilasi</b>	E	Mazkur oilaga kiruvchi tur va turkumlarning ko'pligi tufayli ularning gul tuzilishini yagona formula va diagramma bilan ifodalab bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik kvalimetriya metodlaridan ya'ni nostandard test topshiriqlaridan foydalanish ta'lim samar-adorligini aniqlash, mavjud kamchiliklarga barham berishga zamin tayyorlaydi.

Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini aniqlashning umumiy ko'rnishga olib kelinishi va maqsadga muvofiqligi professor-o'qituvchilarning o'z kasbiy-pedagogik tayyorgarligini orttirish borasidagi izlanishlarini orttirish, ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va ommalashtirish, ular o'rtasida tom ma'nodagi raqobatbardoshlikning vujudga kelishiga zamin tayyorlaydi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Vazirlar Mahkamasining Umumiyl o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida 2017-yil 6-apreldagi 187-sون qarori.
- 2.J.Tolipova , A.To'rayev "Pedagogik kvalimetriya" – O'quv uslubiy qo'llanma - Toshkent-2016
- 3.O'.Pratov, A. To'xtayev va boshqalar. Biologiya (Botanika). Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik.,Toshkent-2017
- 4..B.Aminov va boshqalar. Biologiya. Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik.,Toshkent-2019